



KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA MUSTAQIL O'QUV TOPSHIRIQLARINI TASHKIL ETISHNING AYRIM MASALALARI

Ziyayev A.

Qo'qon DPI BTM kafedراسи dotsenti

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, o'quv dasturi, bilim, ko'nikma, malaka, fan, mustaqillik, tavsiya, metod, yangilik.

Ключевые слова: самостоятельное образование, учебная программа, знания, умения, компетентность, наука, самостоятельность, рекомендация, метод, инновация.

Key words: independent education, curriculum, knowledge, skills, competence, science, independence, recommendation, method, innovation.

Davlat ta'lim standarti talabiga binoan bilimlarni mustaqil ravishda izlanib o'rganish vazifasi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko'nikma darajasida o'zlashtiri bo'lishda mustaqil ta'limning roli beqiyosdir [10]. O'quvchilarga mustaqil ta'limni bajarish yuzasidan fan o'qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta'lim turlari – rang-barang va turli qiziqarli ko'rinishlari – fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mustaqil ta'lim o'quvchilarda: shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilish; bilim, ko'nikma, malakalar negizida tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilingan: namunalar bo'yicha mustaqil ishlar; rekonstruktiv – variativ; evristik (qisman ijodiy); ijodiy tadqiqot.

“Mustaqil ta'limi” - tushunchasi pedagogik lug'atlarda - o'quv yurtidan tashqari, mustaqil ishlash tufayli egallanadigan ta'lim turidir, deb ta'riflangan.

Mustaqil ta'lim bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv–bilish faoliyatini o'quv dasturidan o'rin olgan mavzular yuzasidan qo'shimcha bilim



Mustaqillik - shaxs xarakterining xususiyatlaridan biri bo'lib, insonning tafakkur tizimida, turli ko'rinishdagi faoliyat va harakatlarida aks etadi. Mustaqillik tushunchasi inson oldida turgan vazifalarni hal etish yo'llari va vositalarini tanlashdagi mustaqillik to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liqdir. [2]

Inson hayotining har qaysi davrida o'zining mustaqillik darajasi xosdir. Mazkur mustaqillik darajasi insonning rivojlanish sharoitlariga va zaruratga bog'liq holda yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham ushbu jihatlarni hisobga olishi barobarida o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini bilishi lozim. Ushbu xususiyat haqida batafsil t'xtalish maqsadga muvofiq bo'lib tadqiqot mohiyatini yoritishdagi muhim jihatlardan biri sanaladi. Psixologik adabiyotlarda yosh davrlariga bo'lishda boshlang'ich sinf o'quvchilar yoshi 7-10 yosh bo'lib, bu davr kichik maktab yoshi deb yuritiladi. Bola 7 yoshda jismoniy va ruhiy xususiyatlariga ko'ra ta'lim muassasasida ta'lim – tarbiya olish uchun tayyordir. Bola uchun tizimli, uzluksiz davom etadigan majburiy vaqt asosida tashkil etiladigan ta'lim – tarbiyaviy faoliyatga jalb etiladi va bu faoliyatga o'tish o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshi o'quvchilari jismoniy jihatdan bir maromda o'sadilar. Og'irlik o'rtacha 22 kg, bo'yi 120 sm atrofida bo'ladi. Jismonan harakatchan bo'lishadi. Ularning bosh miyasi tez o'sib boradi. O'pka to'liq shakllangan bo'lsada nafas organlari, diaphragma bo'l bo'ladi. Bu esa ularning uzoq vaqt harakatsiz qolishi mumkin emasligini bildiradi. Yurak urish tezligi daqiqada 90-92 martani tashkil etib, yurak kattalarga nisbatan ikki barobar qon haydaydi [8]. Bularning barchasi o'quvchilarni o'quv topshiriq faoliyatga tortishda ular bilan ehtiyotkorona bo'lishni, gigiyenik talablar asosida g'amxo'rlik qilishni talab etadi. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining qiziqishi voqea – xodisalar mohiyatiga to'g'ri yo'naltirilgan holda rivojlantirilib borishi ularnin his – tuyg'ulari rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilarda mustaqil o'quv topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan yana bir jihatlar borki, bu ularning fikrlash obrazliligidir. Bu borada o'qituvchi nutqining ifodaliligi, ko'rgazmalilik asosiy omildir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil o'quv topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish uzluksizligi ularning bo'sh vaqtlarini pedagogik jihatdan oqilona tashkil etilishini taqozo etadi, ya'ni darsdan keyin, ta'til, dam olish kunlari ham hayotiy tajribalari to'liq shakllanib yetilmagan o'quvchi oilada, sinfdan, maktabdan tashqi ishlarda, boshlang'ich sinflarda kuni uzaytirilgan guruxlarda mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi borasida tarbiyaviy ish olib borilishini talab etadi. Bu borada boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va tarbiyachisiga quydagi talablar qo'yiladi. O'qituvchi



ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan holda va tartibda o'zida qo'yidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- o'quvchilarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish;
- o'quvchilar aqliy va axloqiy jihatdan faol ta'sir etish;
- o'qituvchi umumiy pedagogika, psixologiya, mehnat gigiyenasi va fiziologiyasi, maxsus fanlari bo'yicha chuqur bilimga egaligi;
- o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z ustida ishlash tizimining eng samarali usullarni, yo'llarini tanlab olishi kerak.

O'qituvchining o'z bilimlarini oshirish ishlari doimiy ijodiy izlanishlar maqsadiga yo'naltirilishi zarur. Buning uchun:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lish;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutish lozim.

Mustaqil ta'lim shaxsda: shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilish; bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish; tartibga solish va nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilish; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarininig mustaqil o'quv topshiriqlarini tizimli va izchil bajartirish orqali ularda quydagi sifatlarni shakllanadi:

Atrof olam haqida yaxlit idrok, tassavur va tafakkur qilish yuzaga keladi. Aniq tassavurdan mavhum tassavurga o'tishi tezlashadi. Ta'lim olishning hayotidagi o'rnini anglaydi va o'zini angash sifatlari rivojlanadi. Faol mustaqil hayotiy qarashlar shakllanadi. Mas'uliyatlilik, ishchanlik, ma'naviy yetuklik asoslari barqarorlashib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki tarafdin xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs sifatida gavdalanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim.



Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, yosh avlodning kelajakda kompetensiyaviy faoliyat asoslarini qaror topishida ular bilan olib boriladigan mustaqil o'quv topshiriqlarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi va olib borilishi o'qituvchining zamonaviy o'qitish metodikalarini puxta egallaganligi va pedagogic mahoratiga bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Yusupov, M. M. (2022). Features of the organization and conduct of educational practice of future primary school teachers. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 195-200.
2. Yusupov, M. M. (2023). The Methodology of Organizing and Conducting the Learning and Meeting Activities of Future Elementary Class Teachers. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 50-57.
3. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. «Правила использования интерактивных методов обучения.» *Conferencea* (2023): 143-148.
4. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. «Педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся.» *E Conference Zone*. 2023.
5. Ziyayev, A. N. «The main areas of activity of the class leader in the education of the necessary skills for an independent life in students.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 953-956.
6. Ziyayev, A. N. «Some issues of the formation of skills of a healthy lifestyle in students in the process of labor education.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 851-853.
7. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. «Роль национальных ценностей в воспитании гражданина.» *Ученый XXI века* (2017): 78
8. S.R.Sayidmurodov va b."Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi""Talqin va tadqiqotlar""T-2022 y.
9. V.Abdullayeva, M.Tursunova, M.Xaydarova. *Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. (darslik)*. – T., 2022.
10. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. *Biologiya ta'lim texnologiyalari. Metodik qo'llanma. "O'qituvchi"*, – T., 2002 yil.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil o'quv topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirishdagi nazariy va uslubiy masalalar yozilgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishdagi yosh xususiyatlar hisobga olinishi borasida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu borada metodik tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье изложены теоретические и методические вопросы формирования умений учащихся начальных классов выполнять самостоятельные учебные задачи, представлена информация об учете возрастных особенностей при организации самостоятельного обучения, а также даны методические рекомендации.

SUMMARY

The article outlines theoretical and methodological issues of developing the skills of primary school students to perform independent educational tasks, provides information on taking into account age characteristics when organizing independent learning, and also provides methodological recommendations.